

**QARAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-NOYABR  
OYLARI**

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **4675,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **108,0 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Sektor	Yuzda
Yirik qurilish tashkilotlari	7,6
Norasmiy sektor	21,0
Kichik korxona va mikrofirmalar	71,4

Yirik qurilish  
tashkilotlari

Norasmiy sektor


Kichik korxona  
va mikrofirmalar



## Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-noyabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>4675,6</b>	<b>352,6</b>	<b>3340,2</b>	<b>982,8</b>
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>1451,8</b>	<b>28,0</b>	<b>1319,9</b>	<b>103,9</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>278,7</b>	<b>2,6</b>	<b>178,9</b>	<b>97,2</b>
<b>Beruniy</b>	<b>290,1</b>	<b>15,7</b>	<b>134,4</b>	<b>140,0</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>81,2</b>	<b>0,4</b>	<b>68,8</b>	<b>12,0</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>120,8</b>	<b>12,9</b>	<b>93,6</b>	<b>14,3</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>97,1</b>	<b>10,5</b>	<b>65,5</b>	<b>21,1</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>324,8</b>	<b>139,2</b>	<b>155,3</b>	<b>30,3</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>100,1</b>	<b>0,5</b>	<b>55,8</b>	<b>43,8</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>113,8</b>	<b>4,1</b>	<b>92,6</b>	<b>17,1</b>
<b>Nukus</b>	<b>269,4</b>	<b>0,7</b>	<b>183,9</b>	<b>84,8</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>254,4</b>	<b>36,0</b>	<b>190,9</b>	<b>27,5</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>105,5</b>	<b>21,3</b>	<b>64,3</b>	<b>19,9</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>505,9</b>	<b>65,3</b>	<b>276,9</b>	<b>163,7</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>187,4</b>	<b>1,0</b>	<b>137,9</b>	<b>48,5</b>
<b>Chimboy</b>	<b>121,8</b>	<b>0,5</b>	<b>51,6</b>	<b>69,7</b>
<b>Shomanay</b>	<b>50,8</b>	<b>0,7</b>	<b>27,1</b>	<b>23,0</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>322,0</b>	<b>13,2</b>	<b>242,8</b>	<b>66,0</b>

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 352,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 69,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,1 % punktga kamayib, 7,6 % ni tashkil etdi.



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 42,9 % i yoki 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 56,2 %), To'rtko'l tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 12,9 % i) va Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 14,2 % i yoki 2021- yilning yanvar-noyabr oylarigan nisbatan 30,8 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,4 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 1,5 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 110,4 % ni tashkil etgan holda 3340,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



71,4

2022- yil  
yanvar-noyabr


69,9

2021- yil  
yanvar-noyabr



**MA’LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (1319,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 90,9 %), To‘rtko‘l tumani (276,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 54,7 %), Ellikqal'a tumani (242,8 mlrd. so‘m yoki 75,4 %)ga to‘g‘ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,0 %** ni tashkil etdi yoki **982,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **123,2 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **158,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **4517,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,4 %** va **96,6 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-noyabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **63,8 %** i yoki **2982,1** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**8,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **264,4** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **8,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1811,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **60,7 %** ni tashkil etdi.

**60,7 %**

**30,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **906,5** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **30,4 %** ni tashkil etdi.




# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

## 2022- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4675,6	108,0	100,0
Nukus sh.	1451,8	117,0	31,1
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	278,7	123,0	6,0
Beruniy	290,1	128,5	6,2
Bo'zotov	81,2	110,6	1,7
Qorao'zak	120,8	88,6	2,6
Kegeyli	97,1	118,0	2,1
Qo'ng'irot	324,8	78,3	6,9
Qonliko'l	100,1	129,1	2,1
Mo'ynoq	113,8	67,6	2,4
Nukus	269,4	118,1	5,8
Taxiatosh	254,4	74,6	5,4
Taxtako'pir	105,5	108,0	2,3
To'rtko'l	505,9	113,1	10,8
Xo'jayli	187,4	110,5	4,0
Chimboy	121,8	116,8	2,6
Shomanay	50,8	121,7	1,1
Ellikqal'a	322,0	126,9	6,9

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

7,1

2021- yil  
yanvar-noyabr

3,1

62,8

59,0

30,1

37,9

2022- yil  
yanvar-noyabr



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,1 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,0 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,8 % punktga kamayib, 59,0% ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 7,8 % punktga ko'payib, 37,9 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 12,9 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 87,1 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



16,4



83,6



Yirik qurilish tashkilotlari

2021- yil  
yanvar-noyabr



12,9



87,1



Kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil  
yanvar-noyabr

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 14,6 % punktga kamaydi va 13,7 % ni tashkil etdi. Qolgan, 86,3 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 14,6 % punktga ko'paydi.

**13,7**

2022- yil  
yanvar-noyabr

**86,3**

2022- yil  
yanvar-noyabr

2021- yil  
yanvar-noyabr

**28,3**

2021- yil  
yanvar-noyabr


**71,7**

*Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi*

*Kichik korxona va  
mikrofirmalar  
ulushi*

# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-noyabr oylari

ulushi % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
(61) 222-75-91**